

Talaba ve tadqiqot asosli universitet

● Universitetda Oliy ta'lim faoliyatlarida, 15 tasi tegishli vakolatli milliy idoralar tomonidan akkreditatsiyadan o'tgan, 26 ta bakalavriat, 17 ta aspirantura va 82 ta magistratura (magistratura, doktorantura, san'at bo'yicha malaka oshirish) yo'nalishlari doirasida amalga oshiriladi. Magistratura insituti xalqaro talaba salohiyatiga ega universitet bo'limidir. ESTU oliy ta'lim kengashi tomonidan ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar uchun berilgan 100/2000 doktorlik stipendiyalari va TÜBİTAK tomonidan qo'llab-quvvatlangan 2244 Sanoat doktori dasturi doirasida qo'llab-quvvatlangan talabalar soni bo'yicha ham birinchi o'rinda turadi. ESTU talabalari va tadqiqotga asoslangan eng muhim ikki jihati shundaki, u Talabalar ve dekan munosabatlari,

tadqiqot va magistratura jarayonlari direksiyasiga ega bo'lgan kam sonli universitetlar qatoriga kiradi. Talabalar va dekan munosabatlari - bu talabalarning ta'lim davomida akademik va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shadigan va ularni global miqyosda malakali shaxslar sifatida biznes hayotiga kirishi uchun ishlaydigan bir bo'limdir. Talabalar dekanligi kasb tanlash, kasbni rejalashtirish va stipendiya olish imkoniyatlari doirasida ESTU bilan talabalar orasida yo'l-yo'riq ko'rsatuvchidir. Bu jihati bilan boshqa davlat universitetlaridan ijobiy farq qiladigan ESTU Talabalar dekanligi tarkibidagi tuzilma tufayli abituriyentlardan tortib bitiruvchilarga qadar keng doiradagi talabalar bilan munosabatta bo'ladi.



ESKİŞEHİR TEXNIKA UNIVERSİTESİ Etibor yaratuvchi universitet

“Etibor yaratib, o'zgarish va o'zgarishlarning kashshofi / birinchilaridan bo'lish” g'oyasi bilan talabalarning akademik, shaxsiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishiga eng yuqori darajada hissa qo'shadigan Eskişehir Texnika Universiteti 14 mingdan ortiq talaba va 726 nafar ilmiy xodim bilan shaffof, ishtirokchi, barqaror va muvaffaqiyatga yo'naltirilgan, katta oilaga ega.

Kampus Imkoniyatlari

● Yilning har faslida talabalar tomonidan faol bo'ladigan “Iki Eylul” kampusi 471 gektarlik kampus hududida joylashgan mahsus jihozlar, ochiq va yashil maydonlari bilan talabalar uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etmoqda.



Prof. Dr.
Tuncay Doğeroglu
Rektor

● Eskişehir Texnika Universiteti (ESTU) yangi nomi bilan 2018-yil 18-mayda tashkil etilgan bo'lsa-da, tarixi 1968-yilda Kimyo muhandisligi maktabining ochilishidan boshlangan, poydevori mustahkam va tajribali oliy o'quv yurtidir. “Etibor yaratib, o'zgarish va o'zgarishlarning kashshofi bo'lish” va innovatsion istiqbolga ega bo'lgan universitet, ta'lim, tadqiqot va jamoat xizmati faoliyati, akademik, tarmoq va ijtimoiy hamkorlik bilan o'z farqini yaratishda davom etmoqda. ESTU 14 mingdan ortiq talaba, 726 akademik va 813 ma'muriy xodimlarga ega bo'lgan katta oila bo'lib, boshqaruv tuzilmasi ,shaffof, ishtirokchi, interaktiv, doimiy o'rganish, barqarorlik va birgalikda muvaffaqiyatga qaratilgan.

3 KAMPUSI MAVJUD

ESTU ayni vaqtda o'zida ilm-fan, madaniyat va talabalar shahri bo'lgan Eskişehirning markazida joylashgan 3 farqli kampusda xizmat ko'rsatadi. Aviatsiya va kosmik fanlar

fakulteti, Muhandislik fakulteti, Arxitektura va dizayn fakulteti, Sport fanlari fakulteti va Oliy ta'lim instituti shahar markazidan atigi 12 km uzoqlikda joylashgan Iki Eylul kampusidan faoliyatini davom ettirmoqda. Porsuk kasb-hunar maktabi va transport kasb-hunar maktabi shahar markazidagi Porsuk kampusidan joy olgan. Fan fakulteti esa Yunus Emre kampusida joylashgan.

AVIATSIYA HODIMLARINI YETISHTIRUVCHI BIRINCHI UNIVERSITET

Aviatsiya va kosmik fanlar fakulteti tijoriy aviatsiyasi sektori uchun uchuvchilar, havo harakatini boshqaruvchi va texnik xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni tayyorlaydigan Turkiyadagi “birinchi oliy ta'lim muassasasi” bo'lish xususiyatiga ega. Aviatsiya sektori uchun malakali kadrlar tayyorlagan va infratuzilmasini sektorda foydalanishga ochgan fakultet, shuningdek, o'quv jarayonlari bilan bir qatorda xalqaro

reyslarga ham ochiq bo'lgan 2 Eylul kampusida joylashgan Hasan Po'latkan aeroportini faoliyatini ham nazorat qiladi. Bundan tashqari, universitet qoshidagi seysmik izolyator sinov laboratoriyasi ushbu sohadagi dunyodagi 5 ta laboratoriyadan bittasi. Nano o'lchov tadqiqot laboratoriyasi Turkiyaning bu sohadagi muhim markazlaridan biri.

INSTITUTLAR VA MARKAZLAR

Akademik dasturlar amalga oshiriladigan fakultetlar, institutlar va kasb-hunar maktablari bilan bir qatorda - Yer va Koinot fanlari instituti (YUBE) - Ochiq va masofaviy ta'lim amaliy va tadqiqot markazi (ESTUZEM) - Atrof-muhit muammolarini qo'llash va tadqiqot markazi (ÇEVMER) - Tijoriy aviatsiya tadqiqotlari va İlova markazi (SHAUM) - İlğ'or texnologiyalarni qo'llash va tadqiqot markazi (ITAM) ilmiy, sohaviy hamkorlikka asoslangan tadqiqot ishlari va ilovalarini hayotga tatbiq etilishda muhim ro'l o'lgan.



● Xalqarolashtirish faoliyati universitetning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. ESTU o'z talabalarini akademik litsey va bakalavriat hayotidan boshlab xalqaro standartlarda jihozlangan va raqobatbardosh shaxslar sifatida tarbiyalashni maqsad qilgan. Xalqaro hamkorlik bilan global standartlarda ta'lim va o'qitish siyosatini amalga oshiradi. Talabalar va xodimlar almashinuviga imkon beruvchi Erasmus dasturi doirasida Yevropa Ittifoqining 19 ta turli davlatidagi 73 ta universitet bilan 160 ta, Yevropa Ittifoqidan tashqari 20 ta turli davlatdagi 38 ta universitet bilan 203 ta shartnoma imzoladi. YÖK (Oliy Talim Kengashi) tomonidan qo'llab-quvvatlangan Mavloni almashinuv dasturi doirasida 14 davlatdagi 28 universitet bilan jami 167 ta shartnoma tuzgan. O'zaro anglashuv memorandumini imzolagan xalqaro universitetlar soni 32 tani tashkil etadi.